




TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2022- yil yanvar-dekabr)

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o‘shishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga sog‘lom raqobat muhitida sifatli va raqobatbardosh hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, o‘z vaqtida xaridorlarga yetkazilishida bir qator qulayliklar tashqi bozorlarda ko‘proq tajriba orttirishga imkon beradi. Shuningdek, korxonalar va tashkilotlarga davlatimiz tomonidan bir qator imtiyoz va qulayliklar yaratib berilmoqda, xususan, davlat soliqlarining ma’lum bir muddatga uzaytirilishi va belgilangan vaqtda qisman bo‘lib to‘lanishi, eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha ham qulaylik va yengilliklar yaratilishi savdo aloqalarining o‘shishiga xizmat qiladi.

2022- yil yanvar-dekabr oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 5592,8 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 281,5 mln. AQSh dollariga yoki 5,3 %ga ko‘paydi.






TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

TSAda eksport hajmi 2051,8 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati – 102,0 %) va import hajmi 3541,0 mln. AQSh dollariga (o'zgarish sur'ati – 107,3 %) yetdi. Hisobot davrida 1489,1 mln. AQSh dollari qiymatida salbiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-dekabr, mln. AQSh dollari)



TASHQI SAVDO AYLANMASINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2021- yil yanvar-dekabr nisbatan, %da)

2022- yil yanvar-dekabr

■ Tashqi savdo aylanmasi ■ Eksport ■ Import





TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ULUSHI YUQORI BO'LGAN DAVLATLAR (2022- yil yanvar-dekabr, mln. AQSh dollari)

Davlatlar nomlari	TSA	Eksport	Import	Ulush, %da
Rossiya Federatsiyasi	1309,8	514,1	795,7	23,4
Xitoy	1123,8	384,3	739,5	20,1
Qozog'iston	953,6	138,9	814,7	17,1
Turkiya	664,8	558,6	202,2	13,6
Braziliya	271,2	0,1	271,1	4,8
Tojikiston	108,1	60,7	47,4	1,9
Belorussiya	100,2	28,4	71,8	1,8
Germaniya	90,7	7,5	83,2	1,6
Qirg'iz Respublikasi	69,1	38,9	30,2	1,2
Italiya	65,1	22,4	42,7	1,2
Afg'oniston	71,0	70,5	0,5	1,3
Koreya Respublikasi	47,0	8,2	38,8	0,8
Niderlandiya	42,1	25,5	16,6	0,8
Ukraina	40,2	15,6	24,6	0,7
Litva	37,6	7,3	30,3	0,7
Hindiston	33,6	4,9	28,7	0,6
Eron	33,6	3,9	29,7	0,6
Daniya	33,5	0,0	33,5	0,6




TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 47,3 %ni hamda o'zgarish sur'ati 2021- yilning shu davriga nisbatan 105,3 %ni tashkil etdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida 52,7 %ni (2021- yilning ushbu davrida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 52,4 %ni tashkil qilgan), o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,3 %ni tashkil etdi.

TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING ULUSHLARI (2022- yil yanvar-dekabr, % hisobida)






TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (2022- yil yanvar-dekabr, mln. AQSh dollari)

MDH davlatlaridan Tojikiston, Armaniston va Qirg‘iz Respublikasi bilan faol tashqi savdo balansi hamda boshqa davlatlardan (qo‘shni davlatlardan tashqari) esa Turkiya, Singapur, Niderlandiya davlatlari bilan faol tashqi savdo balansi kuzatilganini ko‘rish mumkin.

TSAda eng yuqori ulush Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Qozog‘iston va Turkiya davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.






TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT VILOYATINING EKSPORTI (2022- yil yanvar-dekabr)

Hozirga kunda davlat tomonidan eksportyorlarni qo‘llab-quvvatlash va eksportbop mahsulotlarni yaratishda imtiyozlar hamda iqtisodiy ko‘mak berilmoqda.

2022-yil yanvar-dekabr oyi yakuni bilan 2051,8 mln. AQSh dollari qiymatdagi (2021- yilning shu davriga nisbatan 102,0 %) tovar va xizmatlar eksport qilindi. Eksport tarkibida tovarlar ulushi 98,6 %ni tashkil etib, bular asosan sanoat tovarlari (66,1 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (12,4 %), turli xil tayyor buyumlar (9,7 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari) (3,6 %), kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (4,1 %), shuningdek, mashina va transport asbob-uskunalari (3,1 %) guruhlariga to‘g‘ri kelmoqda.



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Ichimliklar va tamaki
- Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)
- Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabilar
- Hayvon va o‘simliklar moylari, yog‘lar va mumlar
- Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar
- Sanoat tovarlari
- Mashinalar va transport asbob-uskunalari
- Turli xil tayyor buyumlar
- Xizmatlar



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI (2022- yil yanvar-dekabr)

Tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	2051,9	833,9	1218,0	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	254,3	136,6	117,7	12,4	16,42	9,7
Ichimliklar va tamaki	4,6	4,4	0,2	0,2	0,5	0,02
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	73,7	35,4	38,3	3,6	4,22	3,1
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar	3,4	0,9	2,5	0,2	0,12	0,18
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	1,5	0,2	1,3	0,1	0,02	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	85,0	66,7	18,3	4,1	8,02	1,5
Sanoat tovarlari	1356,8	351,1	1005,7	66,1	42,1	82,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	63,6	43,1	20,5	3,1	5,2	1,7
Turli xil tayyor buyumlar	199,2	192,6	6,6	9,7	23,1	0,5
Xizmatlar	9,8	2,9	6,9	0,5	0,3	0,6





TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING O‘SISH SUR‘ATLARI (2022- yil yanvar-dekabr)

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, 2021- yilning mos davriga nisbatan, nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari), mineral yoqilg‘i yog‘lash moylari va shu kabi materiallar, ichimliklar va tamaki, kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar, sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlarda o‘shish kuzatildi.

Tarkibi	2021- yilning shu davriga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	102,0	120,1	92,5
shu jumladan:			
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	111,5	125,6	98,7
Ichimliklar va tamaki	140	138,1	197,1
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	85,7	67,9	113,0
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar	6,3 m.	2,2 m.	2094,2 m.
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	143,3	140,9	143,7
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	99,0	108,6	74,8
Sanoat tovarlari	96,5	121,0	90,1
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	184,5	176,6	203,6 m.
Turli xil tayyor buyumlar	128,8	128,8	128,9
Xizmatlar	88,0	71,1	97,8

TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2022- yil yanvar-dekabr)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Qozog'iston, Afg'oniston, Tojikiston va Qirg'iz Respublikasi hamkor davlatlaridan jami eksport hajmi 1766,0 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy eksport hajmining 86,6 %ini tashkil qiladi.







TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismidan biri bo'lgan 168,9 mln. dollar qiymatga ega 240,0 ming tonnadan ziyod qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlari eksport qilingan. Bu 2021- yilning shu davriga nisbatan qiymatda – 8,2 %ga ko'paygan, naturada – 1,9 %ga kamayish bo'lgan, Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 78,7 mln. AQSh dollariga teng 124,4 ming tonnadan ortiq sabzavot (qiymatda 17,9 %ga kamaygan), shuningdek, 38,8 mln. AQSh dollari qiymatidagi 37,7 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi (qiymatda o'zgarish sur'ati 11,4 %ga ko'paygan).

2022- yil yanvar-dekabr, mln. AQSh dollari

			
Meva va rezavorlar 37,7 ming tonna 38,8 mln. AQSH dollari	Uzum 40,7 ming tonna 39,3 mln. AQSH dollari	Yeryon-g'oqlar 2,7 ming tonna 3,7 mln. AQSH dollari	Sabzavotlar 124,4 ming tonna 78,7 mln. AQSH dollari

Mamlakatimizda eksport qilinayotgan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlar sifati va hajmi yanada ortib bormoqda. Jumladan, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida meva-sabzavotlarning eksport hajmi 117,5 mln. AQSH dollariga teng bo'lib, jami eksport hajmining 5,7 %ini tashkil qiladi.




TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI (2022- yil yanvar-dekabr)

Mamlakatimizda faoliyat yuritmayotgan korxonalar va tashkilotlar holati o'rganilib, xususan ishlab chiqarish korxonalariga import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishda davlatimiz tomonidan moddiy va moliyaviy yordamlar berilmoqda.

Joriy yilning yanvar-dekabr oylari mobaynida import hajmi 3540,9 mln. AQSh dollari (2021- yilning shu davriga nisbatan o'zgarish sur'ati 107,3 %) tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (23,4 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (20,1 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (19,5 %), sanoat tovarlari (16,6 %) hamda kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (9,9%) hisobiga to'g'ri keldi.





TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

MDH VA BOSHQA XORJIY DAVLATLAR KESIMIDA XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2022- yil yanvar-dekabr)

Tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami import	3541,0	1814,4	1726,6	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	714,5	327,0	387,5	20,21	18,0	22,4
Ichimliklar va tamaki	5,2	5,1	0,1	0,1	0,29	0,1
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	689,4	651,1	38,3	19,5	35,81	2,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	142,8	139,1	3,7	4,0	7,7	0,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	73,5	64,5	9,0	2,1	3,6	0,5
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	352,2	96,7	255,5	9,9	5,3	14,8
Sanoat tovarlari	586,4	393,3	193,1	16,6	21,7	11,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	828,0	109,7	718,3	23,4	6,0	41,6
Turli xil tayyor buyumlar	135,4	21,6	113,8	3,8	1,2	6,6
Boshqa tovarlar	5,0	3,6	1,4	0,19	0,2	0,1
Xizmatlar	8,6	2,7	5,9	0,2	0,2	0,3



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Importning eng katta ulushi nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (35,9 %) va sanoat tovarlari (21,7 %) MDH mamlakatlariga to'g'ri kelsa, boshqa xorijiy mamlakatlardan esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (41,6 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (22,4 %) hissasiga to'g'ri keladi.


MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2022- yil yanvar-dekabr, % hisobida)

Tarkibi	2021- yilning shu davriga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	107,3	99,0	117,7
shujumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	139,8	140,8	138,9
Ichimliklar va tamaki	67,5	69,2	32,4
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	102,5	100,7	149,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	174,2	172,9	2,4 m.
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	95,3	90,2	159,2
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	121,8	100,1	132,6
Sanoat tovarlari	93,1	86,3	111,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	97,9	53,7	112,0
Turli xil tayyor buyumlar	96,3	79,6	100,2
Boshqa tovarlar	42,7	66,4	21,9
Xizmatlar	26,1	52,9	21,1



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2022- yil yanvar- dekabr)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Braziliya, Turkiya, Germaniya va Belorussiya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 2806,5 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy import hajmining 84,0 %ini tashkil qiladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi**
Tel.: (71) 202-86-59